



Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 4-iyun, № 113 (9284)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON SANKT-PETERBURGDAGI FORUMDA O'ZINING IQTISODIY VA INVESTITSIYAVIY SALOHİYATINI TAQDIM ETADI

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2026-yil 4 — 5-iyun kunlari Rossiyaga amaliy tashrifi doirasida Peterburg xalqaro iqtisodiy forumida (PXIF) ishtirok etadi.

Peterburg xalqaro iqtisodiy forumi an'anaviy tarzda jahon iqtisodiyoti, investitsiyaviy hamkorlik va ishlabarmonlik aloqalarini rivojlantirishning dolzarb masalalarini muhokama qilish uchun eng yirik xalqaro maydonlardan biri bo'lib kelmoqda.

Ushbu nufuzli forum dunyoning turli mintaqalaridan davlat tuzilmalari, xalqaro tashkilotlar, ishlabarmon doiralar va ekspertlar hamjamiyati vakillarini birlashtiradi.

O'tgan yilgi forum tadbirlarida 144 davlatdan 24 mingdan ziyod vakillar qatnashgan. Unda umumiy qiymati 6,5 trillion rubldan (taxminan 70 milliard AQSH dollari) ortiq bo'lgan 1116 ta bitim imzolangan. Bu PXIFning yuksak xalqaro nufuzidan va uning zamonaviy iqtisodiy kun tartibini shakllantirishdagi roli ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ko'p yillardan buyon forum xalqaro savdo, investitsiyaviy sheriklik, sanoat kooperatsiyasi va transport-logistika o'zaro bog'liqligini rivojlantirishga doir yondashuvlarni ishlab chiqish uchun nufuzli platforma maqomini saqlab kelmoqda. Forumning zamonaviy kun tartibi raqamli transformatsiya va yuqori texnologiyalardan tortib energetika, infratuzilma hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishgacha

bo'lgan keng ko'lamli yo'nalishlarni qamrab oladi.

O'zbekiston Prezidentining "PXIF — 2026"dagi ishtiroki mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish, investitsiyalarni jalb etish va xalqaro ishlabarmonlik aloqalarini kengaytirishning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Tashrif dasturi doirasida O'zbekiston Prezidentining forum yalpi majlisida nutq so'zlashi, shuningdek, "PXIF — 2026" jarayonida qator ikki tomonlama uchrashuv va muzokaralar o'tkazishi ko'zda tutilgan.

Forum istiqbolli investitsiyaviy tashabbuslarni ilgari surish, sanoat kooperatsiyasi va transport-logistika imkoniyatlarini kengaytirish, O'zbekistonning shakllanayotgan Yevroosiyo iqtisodiy makonidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston delegatsiyasi kun tartibida mamlakatimizni strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari bog'lab turgan Rossiya bilan ko'p qirrali aloqalarini rivojlantirish alohida o'rin egallaydi.

Keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlikning mustahkam shartnomaviy-huquqiy bazasi, jumladan, 2004-yilgi Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma, 2005-yilgi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi

shartnoma hamda 2022-yilgi Keng qamrovli strategik sheriklik to'g'risidagi deklaratsiya shakllantirildi.

Oliy darajadagi muntazam uchrashuvlar siyosiy muloqotning yuqori darajasidan va ikki tomonlama munosabatlarning izchil rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Ikki mamlakat hukumatlari, parlamentlari, tashqi siyosat idoralari, hududlari va ishlabarmon doiralari o'rtasidagi hamkorlik faol mustahkamlanib bormoqda.

Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya, hukumat rahbarlari darajasidagi qo'shma komissiya hamda "Rossiya — O'zbekiston" mintaqalararo forumi amaliy hamkorlikning muhim mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Bu formatlar savdo-iqtisodiy aloqalarini kengaytirish, qo'shma loyihalarni ilgari surish va hududlararo hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik so'nggi yillarda barqaror ijobiy o'sish sur'atini namoyon etmoqda va ikki tomonlama sheriklikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ikki mamlakat o'rtasida erkin savdo rejimi amal qiladi, bu esa o'zaro tovar ayirboshlash, sarmoyaviy hamkorlik va sanoat kooperatsiyasini izchil kengaytirishga xizmat qilmoqda.

2025-yil yakunlariga ko'ra O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 8,5 foizga o'sib, 12,9 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. Bunda eksport 4,3 milliard dollarga, import esa 8,6 milliard dollarga yetdi. 2026-yilning yanvar — aprel oylarida o'zaro savdo hajmi 4,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bu o'tgan yilning shu davridagi ko'rsatkichdan 35 foiz ko'pdir.

Sarmoyaviy hamkorlik ikki tomonlama aloqalar tizimida muhim o'rin egallaydi. Qo'shma loyihalarning joriy portfeli 43,9 milliard dollarga baholanmoqda. Kon-metallurgiya, yoqilg'i-energetika, kimyo, agrar soha, mashinasozlik va to'qimachilik tarmoqlari ustuvor yo'nalishlar sirasiga kiradi.

2026-yil 1-may holatiga ko'ra O'zbekistonda Rossiya sarmoyasi ishtirokidagi 3,2 mingdan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bu Rossiya biznesining yuqori darajadagi ishlabarmonlik faolligini hamda ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdorligini aks ettiradi.

Shu bilan birga, tomonlar transport-logistika sohasidagi o'zaro bog'liqlikni kengaytirish va yangi kooperatsiya zanjirlarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. "PXIF — 2026" doirasida qo'shma yuqori

texnologiyali ishlab chiqarishlarni ilgari surish, sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish va yangi transport yo'laklarini rivojlantirishga alohida urg'u berilishi kutilmoqda.

Shu nuqtaiy nazardan, PXIF ishlabarmon doiralar o'rtasidagi amaliy hamkorlikni mustahkamlash, istiqbolli tashabbuslarni ilgari surish va iqtisodiy hamkorlikning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishda samarali mexanizm vazifasini o'taydi.

An'anaviy tarzda Peterburg xalqaro iqtisodiy forumi ko'p tomonlama hamkorlik va xalqaro aloqalarini rivojlantirish uchun ham muhim maydon bo'lib xizmat qiladi. Turli davlatlar, xalqaro tashkilotlar va yetakchi ishlabarmon doiralar vakillarining ishtiroki O'zbekistonning tashqi iqtisodiy manfaatlarini yanada kengroq ilgari surish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston delegatsiyasining "PXIF — 2026"dagi ishtiroki o'zaro manfaatli O'zbekiston — Rossiya strategik sherikligini yanada kengaytirish, qo'shma sarmoyaviy tashabbuslarni ilgari surish va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qo'shimcha turtki berishi ko'zda tutilgan.

"Dunyo" AA.

Nuqtai nazar

ATOM ENERGETIKASI RIVOJIDA MUHIM STRATEGIK QADAM

Bugungi kunda dunyoda energiyaga talab tobora oshib bormoqda. Shu bois atom energetikasi barqaror va ishonchli energiya manbai sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Tarixga nazar tashlasak, birinchi atom elektr stansiyasi 1954-yilda Rossiya Federatsiyasining Obninsk shahrida ishga tushirildi. Bu insoniyat tarixida atom energiyasini tinch maqsadlarda qo'llashga yo'l ochgan muhim qadam bo'lgan.

Xalqaro atom energiyasi agentligi (MAGATE) va shunga yaqin manbalarning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda dunyodagi 30 dan ortiq davlatlarda 400 dan ziyod atom reaktorlari ishlab turibdi. Ular jahon elektr energiyasining qariyb 9-10 foizini ta'minlamoqda. Ayniqsa, AQSH, Fransiya, Xitoy va Rossiya kabi davlatlar atom energetikasidan keng foydalanayapti. Bugungi kunda esa yana 70 dan ortiq yangi reaktorlar qurilmoqda.

konfiguratsiyasi tasdiqlangan, ya'ni kelajakda "VVER-1000" turidagi "3+" avlod reaktorlari bilan jihozlangan ikkita energoblok qurilishi nazarda tutilgan.

Bu tashabbuslar to'liq quvvatga chiqqandan so'ng yiliga taxminan 15,4 mlrd. kVt. soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu esa O'zbekistondagi umumiy elektr energiyasi iste'molining 15 foizdan ortig'ini tashkil etadi.

Loyiha nima beradi?

Mazkur loyihaning amalga oshirilishi natijasida, avvalo, uzluksiz elektr energiyasi manbai shakllanib, elektr energiyaga talabni qisman ta'minlaydi va tan narx barqarorlashadi.

Shuningdek, O'zbekistonda AES qurilishi energiya mustaqilligini ta'minlash, ekologik toza energiya manbaini shakllantirish va ilmiy-texnik rivojlanish sur'atlarini jadallatirishga xizmat qiladi. Mazkur loyiha oddiy energetik tashabbus emas, balki strategik, texnologik va ilmiy taraqqiyotning muhim drayveri hisoblanadi.

Qurilish bosqichida, ekspluatatsiya jarayonida hamda xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlari yaratiladi. Shu bilan birga metallurgiya, mashinasozlik va avtomatlashtirish kabi sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga turtki beriladi.

AES bilan bir qatorda radiatsiya monitoringi, avariya holatlarini modellashtirish va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan zamonaviy nazorat tizimlari ham rivojlantiriladi.

Stansiya xavfsizligi qanday ta'minlanadi?

O'zbekistonda atom elektr stansiyasi qurish loyihasi doirasida xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada barcha qarorlar ilmiy tahlil va xalqaro standartlar asosida qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda AES: nega bu muhim?

O'zbekistonda bugungi kunda aholi va sanoat o'sishi hisobiga elektr energiyasiga talab yildan-yilga ortib bormoqda, mavjud manbalar esa cheklangan. Shu nuqtaiy nazardan mamlakatimizda atom elektr stansiyasining (AES) qurilishi O'zbekistonning energetik xavfsizligi, iqtisodiy o'sishi va ilmiy taraqqiyotini belgilab beruvchi strategik loyiha hisoblanadi. Loyiha Rossiyaning "Rosatom" atom energiyasi sohasidagi davlat korporatsiyasi hamkorligida amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Loyiha doirasida har biri 55 MVt quvvatga ega ikkita yuqori xavfsizlik darajasini ta'minlovchi kichik quvvatli energoblok barpo etilishi nazarda tutilgan.

Atom energetikasi agentligi ma'lumotiga ko'ra, "Rosatom" davlat korporatsiyasi bilan atom energetikasi va u bilan bog'liq sohalarda uzoq muddatli hamkorlik bo'yicha "Yo'l xaritasi", shuningdek, O'zbekiston Respublikasida integratsiyalashgan atom elektr stansiyasini qurish bo'yicha shartnomaga qo'shimcha kelishuv imzolangan.

Mazkur kelishuvga muvofiq stansiyaning yangilangan

MUNOSABATLAR YANADA FAOLLASHADI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O'zbekiston parlament delegatsiyasi Serbiya Respublikasi Xalq yig'ili shahrida binoan ushbu mamlakatda bo'lib turibdi. Tashrif doirasida parlament yuqori palatasi rahbari Parlamentlararo Ittifoq Parlamentlar ayol a'zolari global konferensiyasida qatnashdi.

Hamkorlik

Anjuman kun tartibidan o'rin olgan tadbirlar rejasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva qator uchrashuvlar ham o'tkazdi. Xususan, Belgrad shahrida Serbiya Respublikasi Xalq yig'ili Spikeri Ana Brnabic bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda O'zbekiston va Serbiya o'rtasidagi munosabatlar keyingi yillarda izchil rivojlanib, sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilgani qayd etildi. Ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi ochiq va ishonchli muloqot hamkorlikni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilayotgani ta'kidlandi.

Ana Brnabic Serbiya O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi eng muhim va istiqbolli hamkorlaridan biri sifatida hisoblashini

bidirib, parlamentlararo aloqalarini yanada kengaytirishdan manfaatdor ekanini qayd etdi.

Muloqot chog'ida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va ijtimoiy himoya sohasidagi hamkorlikning bugungi holati hamda istiqbolli yuzasidan fikr almashildi. Mavjud salohiyatdan yanada samarali foydalanish va o'zaro manfaatli loyihalarni kengaytirish muhimligiga e'tibor qaratildi.

Parlamentlararo muloqotni yanada faollashtirish, delegatsiyalar almashinuvini kengaytirish va hududlararo hamkorlikni rivojlantirishga kelishib olindi.

Yakunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Serbiya Respublikasi Xalq yig'ili o'rtasida parlamentlararo hamkorlik to'g'risida Anglashuv memorandumini imzolandi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

DEPUTATLAR DAVLAT BYUDJETINING 2025-YILDAGI IJROSINI MUHOKAMA QILDILAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda deputatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2025-yildagi ijrosi to'g'risidagi hisobotni ko'rib chiqdi.

Keyingi yillarda davlatimiz rahbarining tashabbus va g'oyalari asosida byudjet mablag'larini shakllantirish hamda ulardan samarali foydalanish mexanizmlari izchil takomillashtirib borilmoqda. Xususan, quyidagi qo'mitalarda har chorak yakuni bo'yicha byudjet mablag'larining sarflanishi, rivojlantirish dasturlari doirasida belgilangan maqsadli indikatorlar hamda Davlat byudjeti parametrlari prognozining ijrosi yuzasidan



vazirlik va idoralar rahbarlarining hisobotlari muntazam eshitib kelinmoqda.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda jahondagi geosiyosiy ziddiyatlar kuchayib, global iqtisodiyotdagi noaniqliklar chuqurlashayotganligiga qaramay Prezidentimizning doimiy e'tibori va uzoqni ko'zlagan siyosati natijasida mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishga erishilmoqda.

MILLAT SHAVKATI VA SAMARQAND RUHI

Tarix, tafakkur va yangilanish haqida mushohadalar

"Xalq so'zi" gazetasi shunday maqolalar chop etiladiki, ularni shunchaki o'qib chiqish bilan cheklanib bo'lmaydi. Bunday materiallar o'quvchini o'ylashga, xotira qatlariga murojaat qilishga, kecha va bugungi taqqoslab ko'rishga undaydi. Siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning "Millat shavkati" nomli maqolasi ana shunday asarlar sirasiga kiritish mumkin.

Aks sado

Maqola ilk qarashda Samarqand haqida, uning tarixi va keyingi yillardagi taraqqiyoti to'g'risida hikoya qilayotgandek tuyuladi. Biroq matnga chuqurroq nazar tashlansa, uning markazida millat taqdiri, milliy xotira, davlatchilik an'analari va tarixiy merosni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish masalasi turgani anglashiladi.

Samarqand haqida so'z ketganda aksariyat insonlar ko'z oldiga Registon maydoni, ko'k gumbazlar, qadimiy madrasalar va ulug' ajodlar siyosini keltiradi. Bu tabiiy hol. Chunki



madaniy kodni ham o'zida mujassam etadi. Agar shaharga faqat sayyohlik obyekti sifatida qaralsa, uning tashqi qiyofasi saqlanishi mumkin, ammo ichki ruhi yo'qoladi. Shu ma'noda, maqolada ilgari surilgan "Samarqand ruhini qayta uyg'otish" g'oyasi alohida ahamiyatga ega.



SAYYOHLIK KO'LAMI KENGAYMOQDA

Shu yil boshidan:

- mamlakatimizga 3 millionga yaqin sayyohlar keldi va o'sish sur'ati 37 foizni tashkil etdi;
- turizm xizmatlari eksporti 48 foiz o'sib, 1,1 milliard dollarga yetdi.

2026-yilda 12 million turistga xizmat ko'rsatish maqsad qilingan.

2026-2027-yillarda:

- hududlarda 31 ta master-reja amalga oshiriladi;
- turizm qishloqlari va mahallalarining umumiy soni 84 taga yetkaziladi.

2030-yil 20 million xorijiy sayyohni jalb qilish rejalashtirilgan.



Fakt va raqamlar

MUNOSABATLAR YANADA FAOLLASHADI

Shuningdek, Senat Raisi Parlamentlararo Ittifoq Parlamentlar ayol a'zolari global konferensiyasi doirasida Vengriya Milliy assambleyasi Spikeri Agnesh Forstxoff bilan ham uchrashdi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni yanada rivojlantirish, parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash hamda o'zaro manfaatli tashabbuslarni ilgari surish masalalari ko'rib chiqildi.

Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar izchil rivojlanib borayotgani, mavjud

salohiyatdan samarali foydalanish muhimligi ta'kidlandi.

Amaliy muloqotlarni faollashtirish, parlamentlararo hamkorlik bo'yicha guruhi hamda yosh parlament a'zolari o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, shuningdek, hududlararo sheriklikni mustahkamlash yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida Senat Raisi Vengriya parlamenti vakillarini joriy yilning 4 - 6-sentabr kunlari Samarqand shahrida o'tkaziladigan Parlamentlararo Ittifoqning Yosh parlament a'zolari global konferensiyasida ishtirok etishga taklif qilindi.

PARLAMENTLARARO ALOQALAR YANGI BOSQICHDA

Belgrad shahrida O'zbekiston va Serbiya parlamentlararo hamkorlik guruhlarini a'zolarining uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuv

Muloqotda O'zbekiston va Serbiya o'rtasidagi parlamentlararo munosabatlarning bugungi holati hamda ustuvor yo'nalishlari xususida fikr almashildi.

Keyingi yillarda ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy muloqot va parlamentlararo aloqalar izchil rivojlanib borayotgani qayd etildi. Shuningdek, parlamentlararo hamkorlik guruhlarini ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashda muhim o'rin tutayotgani ta'kidlandi.

Uchrashuvda parlamentlarning rahbariyati va qo'mitalari o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish, qonun ijodkorligi, parlament nazorati hamda tahliyl-taqiyoqot faoliyati sohalarida tajriba almashish masalalari ham muhokama qilindi.

Shu bilan birga, xalqaro parlament tashkilotlari doirasida

hamkorlikni faollashtirish, o'zaro tashriflar va qo'shma tadbirlarni muntazam tashkil etish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Serbiya Respublikasi Xalq yig'ilishi o'rtasida parlamentlararo hamkorlik to'g'risida imzolangan Anglashuv memorandumining ahamiyati alohida qayd etildi. Ta'kidlanganidek, hujjat parlamentlararo muloqotni yanada rivojlantirish, qonun ijodkorligi faoliyatida tajriba almashishni kengaytirish, shuningdek, xalqaro parlament tashkilotlari doirasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish uchun mustahkam huquqiy va tashkiliy asos yaratadi.

Tomonlar parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlash, o'zaro manfaatli tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va amaliy muloqotni davom ettirishga tayyor ekanini bildirdi.

"Xalq so'zi".

AYOLLAR DUNYONI BIRLASHTIRADI

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orziqul Qozixonova Rossiya Federatsiyasining Ufa shahrida bo'lib o'tgan "Ayollar baxti hududi" xalqaro forumida qatnashdi.



Xalqaro forum

Tadбир doirasida Boshqirdiston Respublikasi rahbari Radiy Xabirov hamda "Territoriya schasty" xayriya jam'armasi Vasiylik kengashi raisi Karine Xabirova bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

Forumning "Ayol dunyoni birlashtiradi" mavzuidagi sessiyasida O. Qozixonova ma'ruza qilib, mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama

qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikni ta'minlash hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so'z yuritdi.

Shuningdek, O'zbekiston tashabbusi bilan tashkil etilayotgan Osiyo xotin-qizlari forumi, uning maqsad va vazifalari hamda ayollarning mintaqaviy hamkorlikni

mustahkamlashdagi roli xususida taqdimot o'tkazildi.

Muhokamalar davomida xotin-qizlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini, gumanitar hamkorlikni kengaytirish, oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash va ijtimoiy himoya masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Forum ishtirokchilari tomonidan O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash

borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuqori baholandi hamda gumanitar va madaniy sohalarida hamkorlikni yanada kengaytirishga qiziqish bildirildi.

Forum ishtirokchilari Boshqirdiston Respublikasida xayriya faoliyati va palliativ tibbiy yordam sohasida to'plangan ilg'or tajribalar hamda Ufa shahridagi "Ufa xospisi" faoliyati bilan tanishdi.

NURONIYLAR QADIM TURKISTONDA

Namangan viloyatining bir guruh faol nuroniylari uchun Qozog'iston Respublikasining Turkiston shahriga ziyorat va ma'rifiy safar tashkil etildi. Bu xayrli tadbirni uyushtirishda Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi a'zosi Ikromxon Najmiddinov tashabbus ko'rsatdi.

Ziyorat

Nuroniylar dastlab Turkiston shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan bunyod etilgan yangi masjid majmuasini ziyorat qilishdi.

Muhtasham me'moriy yechimlari, nafis bezaklari, obod hamda fayzli muhiti bilan ajralib turuvchi ushbu majmuva nuroniylarda katta taassurot qoldirdi.

Safarning navbatdagi manzili turkiy xalqlar va islom olamining buyuk

mutafakkiri, alloma Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi bo'ldi. Ziyoratchilar ushbu muqaddas qadamjoda bo'lishib, allomaning boy ma'naviy merosi, hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Ta'kidlanganidek, mazkur safar ishtirokchilarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, tarixiy merosga hurmatni mustahkamlash hamda xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlik rishtalarini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

ATOM ENERGETIKASI RIVOJIDA MUHIM STRATEGIK QADAM

"Radiatsiya va yadro xavfsizligi ilmiy-texnik markazi" davlat muassasasi tomonidan "RITM-200N" reaktor qurilmasiga ega bo'lgan atom elektr stansiyasining 1 va 2-energobloklari bo'yicha xavfsizlikni asoslovchi hujjatlar atroficha o'rganildi.



qilingan hujjatlar belgilangan talablarga mos ekanligi qayd etildi. Bu esa loyihaning xavfsizlik jihatdan puxta ishlanganini ko'rsatadi.

Qurilish uchun maydon to'liq o'rganilgan

Atom elektr stansiyasi qurilishi rejalashtirilgan hudud bo'yicha keng qamrovli ekspertiza ishlari amalga oshirildi. Unda maydonning barcha muhim jihatlari har tomonlama o'rganildi.

Mutaxassislar tomonidan hududning yadroviy, radiatsiya va yong'in xavfsizligi talablariga mosligi tekshirildi. Shuningdek, maydonning geografik joylashuvi, yer tuzilishi, aholi zichligi, iqlim sharoiti va tabiiy xususiyatlari ham atroficha tahlil qilindi.

Alohida e'tibor yer qa'rining holatiga

qaratildi. Xususan, tuproqning mustahkamligi, yer osti suvlari, seysmik holat va boshqa tabiiy omillar chuqur o'rganildi. Bu esa kelgusida qurilish va ekspluatatsiya jarayonlarining xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, atrof-muhit va aholi xavfsizligi masalalari ham inobatga olindi. Sanitariya himoya zonalarini, kuzatuv hududlarini va ehtimoliy favqulodda holatlarda aholini evakuatsiya qilish rejalarini ham ko'rib chiqildi.

Ekspertiza doirasida stansiyaning avariya holatlariga tayyorgarlik darajasi, atrof-muhitga ta'siri va umumiy xavfsizlik tizimi ham tahlil qilindi. Bundan tashqari, qurilish ishlarini amalga oshiradigan tashkilotlar faoliyati va sifat nazorati dasturlari ham baholandi.

Mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan tahlillar natijasida atom elektr stansiyasini Jizzax viloyatida joylashtirishga to'liq qo'llab-quvvatlash me'yoriy talablarga zid holatlar aniqlanmadi.

O'zbekistonda atom elektr stansiyasi qurilishi mamlakatimizning energetik mustaqilligi, taraqqiyoti, sohaga doir ilm-fanni rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategik qadamdir. Eng muhimi, ushbu jarayon ilmiy asosda, xalqaro standartlar va qat'iy xavfsizlik talablariga mos holda amalga oshirilmoqda. Bu esa kelajakda atom energetikasini xavfsiz va ishonchli rivojlantirishga mustahkam zamin yaratadi.

Ibrohim TOSHKENTBOYEV, «Radiatsiya va yadro xavfsizligi ilmiy-texnika markazi» DM direktori.

MILLAT SHAVKATI VA SAMARQAND RUHI

Tarix, tafakkur va yangilanish haqida mushohadalar

Muallif Samarqand tarixini tilga olar ekan, shahar hayotidagi yuksalish va tanazzul davrlarini o'zaro taqqoslaydi. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek va Yalangto'sh Bahodir zamonlarida shahar nafaqat me'moriy jihatdan, balki siyosiy va ma'naviy ma'noda ham taraqqiy etgani ta'kidlanadi. Bu yerda muhim jihat shundaki, maqola muallifi shaharning buyukligi faqat binolar bilan emas, balki uning atrofida shakllangan davlatchilik muhiti, ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti bilan belgilanishini ko'rsatadi.

Haqiqatan ham, tarixda shunday shaharlar borki, ularning shuhrati arxitekturasiga bilan emas, balki inson tafakkuriga qo'shgan hisssasi bilan o'lchanadi. Afina, Rim, Bag'dod, Qohira, Istanbul kabi shaharlar qatorida Samarqand ham ana shunday sivilizatsiya markazlaridan biri hisoblanadi. Shu bois uning taqdiri haqida fikr yuritish faqat bir hudud o'tmishi haqida emas, balki millat tarixi haqida so'zlash demakdir.



Eng muhimi, maqola o'quvchini bir savol ustida o'ylashga undaydi: buyuk tarix merosxo'ri bo'lishning o'zi yetarli yoki uning davomchisi bo'lish ham zarurmi? Ana shu savol atrofida mushohadalar materialning bosh g'oyasini tashkil etadi va uning ahamiyatini belgilaydi.

Taraqqiyotning haqiqiy mezonlari

Muallif Samarqand haqida so'z yuritir ekan, shaharning tashqi qiyofasi bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, har qanday taraqqiyotning haqiqiy mezonlari inson hayotidagi o'zgarishlar ekanini ko'rsatishga intiladi. Bu esa materialning oddiy tarixiy yoki xotiraviy maqola emas, balki keng ijtimoiy mazmunga ega publitsistik asar ekanini namoyon qiladi.

Darhaqiqat, har qanday shaharning ko'riki uning binolarida emas, avvalo, odamlarining kayfiyatida, yashash sharoitida va ertangi kunga ishonchida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda maqolada keltirilgan ko'plab misollar faqat bir hududda amalga oshirilgan ishlar haqida emas, balki davlat boshqaruvining muayyan falsafasi bo'yicha ham tasavvur beradi.

Taraqqiyot hech qachon bo'sh joyda paydo bo'lmaydi. U har doim murakkab sharoit, jiddiy muammolar va og'ir qarorlar orqali shakllanadi. Shu nuqtayi nazaridan qaraganda, maqolada tasvirlangan davr nafaqat Samarqand, balki butun mamlakat hayotidagi muhim bosqich sifatida namoyon bo'ladi. Muallif alohida urg'u berayotgan masalalardan biri - rahbarning odamlar ichiga kirib borishi, vaziyatni kabinetdan emas, bevosita joylarga chiqib o'rganishi haqidagi fikrlar. Bu holat oddiy

tashkiliy usul sifatida ko'rinishi mumkin. Biroq uning zamirida davlat boshqaruvining muhim tamoyili mujassam.

Chunki rahbarlikning eng katta xatolaridan biri - voqelikni hujjatlar orqali qabul qilish. Hujjat raqamlari ko'rsatadi, hisobot natijani aks ettiradi, lekin insonning dardini to'liq ifoda eta olmaydi. Shu sababli ham keyingi yillarda mamlakatimizda xalq qabulxonalarini, sayyor qabullar va joylarga chiqib ishlash amaliyotining keng qo'llanilishi davlat boshqaruvida yangi yondashuv sifatida baholalanmoqda.

Sport inshootlari, yoshlar markazlari va madaniy muassasalar haqidagi fikrlar ham shu nuqtayi nazarning davomidir. Chunki jamiyat kelajagi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki sog'lom va bilimli avlod bilan belgilanadi.

Farovon jamiyat qurish strategiyasi

Iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash ham ustuvor ahamiyatga ega. Aholining turmush darajasini yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali farovon jamiyat qurishga erishish mumkin. Bu jarayonda davlat va jamoatchilik institutlarining o'zaro hamjihatligi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ekologik muammolar ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Tabiiy resurslardan qo'llana foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini hayotga tatbiq etish kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatimizni belgilaydi. Shu ma'noda, har bir fuqaroning ekologik madaniyatini yuksaltirish va tabiatga ehtiyojkorona munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Taraqqiyot va yangilanish yo'lidagi sa'y-harakatlar faqatgina iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki inson manfaati, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish tamoyillari bilan ham baholanishi lozim. Ana shundagina jamiyatning har bir a'zosi o'zini islohotlar va o'zgarishlarning faol ishtirokchisi sifatida his etadi, mamlakatning kelajagi esa yanada porloq va ishonchli bo'ladi. Taraqqiyot yo'lida erishilayotgan har bir yutuq, avvalo, xalqimizning birlamligi, mehnatkashligi va ezuq maqsadlar yo'lidagi sa'y-harakatlari samarasidir. Birlashgan kuch va umumiy maqsadlar sari intilish mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichlarga olib chiqishga xizmat qiladi.

Yangilanishlar davrida har birimiz o'z mehnatimiz, tashabbusimiz va faol ishtirokimiz bilan yurt ravnaqiga munosib hissa qo'shishimiz lozim. Ana shunda bugungi islohotlar ertangi farovon hayotning mustahkam poydevoriga aylanadi.

Jasur RIZAYEV, Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori, professor.

"Ma'naviy uyg'onish" nima?

Maqolaning diqqatga sazovor jihatlardan yana biri - mustaqillikning dastlabki yillariga berilgan baho. Muallif bu davrda ko'plab tarixiy obidalar ta'mirlanganini, muqaddas qadamjolar obod qilinishini e'tirof etadi. Biroq shu bilan birga shaharning haqiqiy ruhiy muhitini tiklash uchun bundan ham kengroq yondashuv zarur bo'lganini ta'kidlaydi. Bu fikr juda muhim. Chunki har qanday mamlakat taraqqiyotida tashqi o'zgarishlar bilan ichki evrilishlar bir-biriga mos kelishi lozim. Yo'llar qurish, binolar barpo etish, infratuzilmani yaxshilash zarur. Ammo odamlarning ongi, dunyoqarashi va hayotga munosabati o'zgarmas ekan, bunday ishlar to'liq samara bermaydi.

Maqolaning yana bir e'tiborli jihati shundaki, muallif tarixiy voqealar va zamonaviy jarayonlarni bir-biriga bog'lay olgan. U Samarqandning kechagi va bugungi qiyofasini taqqoslar ekan, taraqqiyotning asosiy kuchi sifatida inson omilini ko'rsatadi. Darhaqiqat, har qanday o'zgarishning markazida inson turadi. Tarixiy obidalarini ham odamlar bunyod etadi, iqtisodiy islohotlarni ham ular amalga oshiradi, ma'naviy muhitni ham shu kishilar shakllantiradi.

Shuning uchun ham maqolada shahar tarixi bilan bir qatorda muayyan shaxslar faoliyatiga katta o'rin berilgan. Bu yerda eng muhimi - inson va tarix munosabati masalasi. Tarixni faqat bir odam yaratmaydi. Biroq ayrim davrlarda muayyan shaxslar jamiyat taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ana shu nuqtayi nazar maqola g'oyaviy o'zining muhim qismini tashkil etadi.

"Millat shavkati" maqolasi faqat bir hudud yoki bir davr haqida emas. U milliy xotira, davlatchilik an'analari, ma'naviy tiklanish va taraqqiyot falsafasi to'g'risidagi keng qamrovli mushohadadir. Muallif Samarqand misolida millat taqdiri haqida fikr yuritadi, tarix bilan zamonaviylik o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiladi.

DEPUTATLAR DAVLAT BYUDJETNING 2025-YILDAGI IJROSINI MUHOKAMA QILDILAR



2025-yil yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulotning hajmi 2024-yildagiga nisbatan 7,7 foiz, iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bo'lgan xizmatlar sohasi 14,7 foiz va qurilish sohasi 14,2 foiz hamda sanoat sohasi 6,8 foizga o'sdi. Shuningdek, mamlakatda yillik inflyatsiya 7,3 foizni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 81,2 mlrd. dollarga teng bo'ldi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlar natijasida 2025-yilda jami 591,1 trln. so'mlik asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, 2024-yildagiga nisbatan 10,5 foizga oshdi.

Davlat byudjeti daromadlari 2024-yildagiga nisbatan 116,6 foiz, Davlat byudjeti xarajatlari esa 99,3 foizga bajarilgan. Davlat byudjeti mablag'larining 47,0 foizi yoki 180,4 trln. so'm ijtimoiy soha xarajatlarini moliyalashtirishga sarflanib, ushbu xarajatlarning 86,5 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, uy-joy bilan ta'minlash dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Hisobot davrida ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar o'z vaqtida to'lab berilgan hamda inflyatsiyadan kam bo'lmagan miqdorda oshirilgan.

Muhokamalarda deputatlar Davlat byudjetining ijrosi aholi farovonligini oshirish, har bir insonga o'z salohiyatini ro'yogga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan alohida e'tirof etdi.

Xalq vakillari ta'lim sohasidagi islohotlar tahliliga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, sohani rivojlantirish uchun byudjetdan 84,2 trln. so'm yoki 2024-yildagiga nisbatan 12,9 trln. so'm ko'p mablag' yo'naltirilgan. Shuningdek, davlat-xususiy sherikligidagi bolalar bog'chalariga qariyb 4,0 trln. so'm subsidiya ajratilgan. Buning natijasida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 32 mingtaga yetib, ulardagi bolalar qamrovi 1 milliondan oshgan.

Hisobot davrida aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish masalalari xalq vakillarining diqqat markazida bo'ldi. Xususan, sohaga 43,3 trln. so'm mablag' yo'naltirilgani alohida qayd etildi. Bu ko'rsatkich 2024-yildagiga nisbatan 7,2 trln. so'm ko'pdir. Bundan tashqari, davlat tibbiy sug'urtasi tizimi bilan qamrab olingan tibbiyot muassasalari tomonidan 21,6 trln. so'm mablag' sarflangan deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilindi.

Xalq vakillari 2025-yilda kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi, moddiy yordam va kompensatsiyalar uchun ajratilgan 14,5 trln. so'm byudjet mablag'larining maqsadli ishlatilishini ko'rib chiqdi.

Muhokamada kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini izchil oshirishga qaratilgan tadbirlarni moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Davlat byudjeti jami xarajatlarning qariyb 11,9 foizi yoki 45,5 trln. so'm mablag' yo'naltirilganligi Yangi O'zbekistonning "ijtimoiy davlat" konstitutsiyaviy maqomiga uyg'un holat sifatida baholandi.

Xalq vakillari erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda, hisobot davrida Davlat byudjeti ijrosida mavjud ayrim masalalarga ham e'tibor qaratdi. Byudjet ijrosi hisobotida byudjetdan tashqari jamg'armalarning moliyaviy aylanmalari bo'yicha ma'lumotlar ochiqligi va shaffofligini oshirish, byudjet daromadlarini ko'paytirish va moliyaviy nazoratni kuchaytirishga qaratilgan qator takliflar berildi.

Muhokamalarda hisobot davrida rivojlantirish dasturlariga byudjetdan yetarlicha mablag'lar ajratilishiga qaramasdan ayrim vazirlik va idoralar tomonidan mablag'lar to'liq o'zlashtirilmaganligi deputatlar e'tirozlariga sabab bo'ldi. Xususan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, Sport, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo, Energetika vazirliklarida byudjet xarajatlari ijrosi rejaga nisbatan to'liq bajarilmaganligi tanqid qilindi.

Hisobot yilida ichki audit xizmatlari tomonidan o'tkazilgan tadbirlar natijasida jami 827,3 mlrd. so'mlik maqsadsiz va samarasiz xarajatlarning oldi olingan bo'lsa-da, bu boradagi ishlar hali sust va yetarli darajada samara bermayotganligiga e'tibor qaratildi. Byudjet mablag'larini maqsadsiz sarflash, kamomad va noqonuniy o'zlashtirish holatlari hamon uchrayotgan, moliyaviy xato-kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganini xalq vakillari tanqidiy baholadi.

Majlisda kun tartibidagi masala yuzasidan deputatlar tomonidan qator savollar ko'tarildi.

Sayyora JUMAYEVA, deputat:

– Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi akademik litsey bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi 93 foiz deb belgilangan bo'lsa-da, amalda 85,8 foiz bajarilgan. Talabalar turarjoylarida 12 215 yotoq o'rnini tashkil etish ko'zda tutilgan, ammo bu 90,7 foizga bajarilgan. Ajratilgan mablag'lar mavjud bo'lgani holda ushbu muhim ijtimoiy va strategik indikatorlarning to'liq bajarilmasdan qolishiga aynan qanday omillar sabab bo'ldi?

Sayyora IMOMOVA, deputat:

– Taqdim etilgan hisobotni tahlil qilganimizda, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda uning tizimidagi jamg'armalar tomonidan mablag'larni ishlatishda jiddiy sustkashliklarga yo'l qo'yilgani ko'rinmoqda. Masalan, kambag'allikni qisqartirish dasturlariga ajratilayotgan mablag'lar to'liq o'zlashtirilmagan. Hokim yordamchilari tavsiyasi asosida 40 000 nafar xotin-qizga ajratilishi kerak bo'lgan subsidiyalar atigi 7 000 nafar ayolga ajratilgan, xolos. Ijtimoiy sohada bir qancha yo'nalishlarga ajratilgan mablag'lar o'z vaqtida o'zlashtirilmaganiga, mablag'lar egalari yetkazilmaganiga asosiy sabab nima?

Bu kabi qator savollarga vazirliklar tomonidan tegishli javoblar qaytarilib, tushuntirishlar berildi. Majlisda mas'ul qo'mita raisi Davlat

byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2025-yildagi ijrosi tanqidiy ko'rib chiqilgani, berilgan savollarga Hukumat a'zolaridan atroflicha javoblar olinganiga urg'u berib, ushbu masalalar parlamentning doimiy nazoratida ekanini ta'kidladi. Siyosiy partiyalar fraksiyalari yig'ilishlarida ham ushbu hisobot tanqidiy-tahliliy ko'rib chiqilgani va qator dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashilgani aytildi.

Sharofiddin NAZAROV, Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi:

– Davlat byudjetining 2025-yildagi ijrosi "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunda belgilangan byudjet parametrlari doirasida amalga oshirilgan. Tahlillar jarayonida ahamiyat qaratishimiz lozim bo'lgan muhim masalalar ham borligi ayon bo'ldi. Jumladan, byudjet daromadlari va soliq bazasini kengaytirish bo'yicha asosiy e'tiborni soliq solish bazasini kengaytirish, iqtisodiyotdagi yangi "o'sish nuqtalari"ni aniqlash va qo'shimcha zaxiralarni safarbar etishga qaratgan holda byudjetlarga tushumlarni to'liq ta'minlash choralari kuchaytirish lozim.

Soliq qarzdorliklari bilan ishlash bo'yicha tezkor undiruv choralari ko'rish ham zarur. Chunki bugungi kunda yuzaga kelgan boqimanda soliq qarzdorligi bu iqtisodiyotimiz va ijtimoiy dasturlar uchun ishlashi kerak bo'lgan mablag'lardir. Tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda ushbu qarzdorlikni qisqa muddatda to'liq undirish bo'yicha tezkor va ta'sirchan choralarini ko'rish talab etiladi. Shuningdek, "yashirin iqtisodiyot" ulushini qisqartirish, biznes uchun teng raqobat muhitini yaratish borasida tizimli ish olib borish barchamizning burchimiz ekanini davlatimiz rahbari tomonidan ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Bu borada moliyaviy qonunbuzilishlar va korrupsiyaviy holatlarga qarshi murosasiz bo'lishimiz talab etiladi.

Majlisda Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari muhokamadagi masala yuzasidan o'z munosabatlari bildirdi.

Aktam HAITOV, O'ZLiDEP fraksiyasi rahbari:

– Fraksiyamiz Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2025-yildagi ijrosini qo'llab-quvvatlagan holda Hukumat e'tiborini quyidagi asosiy masalalarga qaratish lozim deb hisoblaydi. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish orqali tarmoqlarni tarkibiy o'zgarishlar (diversifikatsiya) qilishni davom ettirish. Bu orqali iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi funktsional va texnologik bog'liqliklar uyg'unlashtiriladi va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan klasterlashuv jarayoni rag'batlantiriladi. Mamlakatda uzluksiz va muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash, mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish hamda milliy eksport salohiyatini kengaytirish uchun mustahkam asos bo'ladi.

Prezidentimizning tashabbuslari bilan 2026-yil 1-iyundan 2030-yil 1-yanvargacha qadar asosiy faoliyat turi umumiy ovqatlanish, savdo yoki xizmat ko'rsatish sohasi bo'lgan tadbirkorlarga ixtiyoriy ravishda QQSni hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibini tanlash

huquq berilishi, QQS stavkasi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha barcha aylanmalarga nisbatan 6 foiz hamda foyda solig'i stavkasi "0" foiz belgilanishi va soliq hisobotini taqdim etish majburiyati bekor qilinishini fraksiyamiz to'liq qo'llab-quvvatlaydi.

Alisher QODIROV, "Milliy tiklanish" DP fraksiyasi rahbari:

– Alohida ta'kidlash joizki, Davlat byudjeti bilan bog'liq masala Qonunchilik palatasida yil davomida muhokama qilinadi. Hukumat, tegishli vazirlik, idoralar bilan barchamizni qiziqitirgan, ustuvor bo'lgan masalalarning qanday ijro qilinayotgani, mablag'lar qanday maqsadlarga yo'naltirilayotgani, qaysi sohalarda kamroq yoki qaysi sohalarda ko'proq mablag'ga zarurat bo'layotgani, joylarda aniqlangan muammolar doimiy e'tiborimizda. Bu haqda saylovchilarimizga muntazam axborot berib boramiz.

Ayonki, maktabgacha ta'lim va ta'lim tizimi ustuvor vazifamiz bo'lib kelgan. Bu sohalarga mablag'lar zarur bo'lganidan ham ko'proq ajratilayotgani, chunki qamrov kengayib boryapti. Mamlakatimizda ta'lim tizimi isloh qilinayotgani, yoshlarning bilim olishi uchun barcha zarur shart-sharoit yaratilmoqda. Ajratilgan mablag'larni kelajakka, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiya deb baholaymiz. Ijtimoiy himoyaga yo'naltirilayotgan mablag'larni ham ana shu siyosatning natijasi sifatida qabul qilamiz.

Alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak bo'lgan masala tashabbusli byudjet doirasida har bir deputatga ajratilgan 3,5 milliard so'm mablag' haqida. Bu o'zining ijobiy samarasini bermocda.

Robaxon MAHMUDOVA, "Adolat" SDP fraksiyasi rahbari:

– Fraksiyamiz hisobotni muhokama qilish jarayonida byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi va nazoratini yanada oshirish lozim degan xulosaga keldi. Shuningdek, biz Davlat byudjeti ijrosini ta'minlashda hududiy davlat organlari va ijro tuzilmalarining mahalliy Kengashlar hamda jamoatchilik oldidagi hisobdorligini yanada kuchaytirish lozim deb hisoblaymiz.

Yana bir mulohazamiz shundan iboratki, Hisob palatasi taqdim etgan xulosalar bilan Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi yuzasidan berilgan hisobotlarda tafovutlar uchray turadi. Biz mana shu tafovutlarni doimiy tahlil qilish va ulardan tegishli amaliy xulosalar chiqarish tarafdorimiz.

Fraksiyamiz ana shunday izchil yondashuvlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ijtimoiy samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi deb hisoblaydi. Ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanishda parlament nazoratini kuchaytiramiz.

Chunki byudjetdan ajratilayotgan har bir so'm har bir fuqaroning turmush farovonligini oshirish, inson qadriini yuksaltirish va aholi hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilishi zarur. Bu jarayonning doimiy nazoratini olib borish esa biz, deputatlarning doimiy ustuvor vazifalarimizdan biridir.

Ulug'bek INOYATOV, O'ZDXP fraksiyasi rahbari:

– Davlat byudjeti partiyamiz elektorati hisoblangan aholining ijtimoiy zaif qatlami



huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilganligini e'tirof etish lozim. Shu bilan birga, fraksiyamiz Hukumatning e'tiborini bir qator muhim masalalarga qaratadi. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasini jilovlash va narxlar barqarorligini ta'minlash. Bunda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bozorida raqobatni kuchaytirish, import va logistika xarajatlarini kamaytirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish, ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlarning narxi barqarorligini ta'minlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirish lozim.

Davlat byudjeti ijrosida natijadorlikka erishishga alohida e'tibor qaratish, xususan, yangi qurilgan ijtimoiy soha obyektlarini o'z vaqtida foydalanishga topshirish bo'yicha nazoratni kuchaytirish zarur. Xususan, saylov okrugaridagi o'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, qator yangi sog'liqni saqlash obyektlari o'tgan yili qurilib bitkazilgan bo'lishiga qaramasdan shtat birliklari ajratilmagan yoki jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan natijasida hozirgacha foydalanishga topshirilmay kelinayotgani kuzatilmoqda.

Hisobotda aytilgan byudjet ijrosidagi kamchiliklarni kelgusida bartaraf etish maqsadida, avvalambor, byudjet ijrosiga nisbatan tanqidiy yondashuvni kuchaytirish, mas'ul vazirlik, idoralar rahbarlari zimmasiga shaxsiy javobgarlikni yuklash, yuzaga kelgan salbiy holatlarni chuqur tahlildan o'tkazish, ochiq va ta'sirchan choralar ko'rish zarur deb hisoblaymiz.

Abdushukur HAMZAYEV, O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari:

– 2025-yilgi Davlat byudjeti ijrosini muhokama qilish ekanimiz, masalaga ekologik barqarorlik, suv xavfsizligi, qishloq xo'jaligi samaradorligi va "yashil" iqtisodiyot nuqtayi nazaridan ham baho berishimiz lozim.

Qayd etish kerakki, bugun ekologiya sohasiga ajratilgan mablag'lar o'smoqda. Bu Yangi O'zbekistondagi davlat siyosatining ekologik ustuvorlikka qaratilayotganini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyoda suv taqchilligi kuchayib borayotgan bir sharoitda Davlat byudjetida suv xo'jaligiga katta e'tibor berilmoqda. Iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash, sho'rlanish va cho'llanishga qarshi kurash, agroekologik yondashuvlarni keng joriy qilish eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolishi kerak deb hisoblaymiz.

O'rmon xo'jaligini rivojlantirish va "Yashil makon" umummilliy loyihasiini izchil davom ettirish, yashillikni bosqichiga-bosqich oshirib borish ham muhim bo'lib, bu bo'yicha tegishli vazirlikka o'z taklif va tavsiyalarimizni berdik.

Umuman aytganda, bugun ekologiyani barqarorlashtirishga sarflanayotgan mablag' kelajak avlod salomatligiga, suv, oziq-ovqat xavfsizligiga va albatta, iqtisodiy barqarorlikka kiritilgan investitsiyadir. Shunday ekan, uning maqsadli va manzilli ta'minlanishi ustidan parlament nazoratini olib borishimiz ayni muddao.

Majlisda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2025-yildagi ijrosi to'g'risidagi hisobot yuzasidan tegishli qarori qabul qilindi.

Oybek RAHMOLQOV, O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi:

– Mamlakatimiz transport tizimining energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizligini ta'minlashda temir yo'llarni elektrlashtirish eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Hisobotda bu borada sezilarli o'sish sur'atlari aks etganini ko'rish mumkin. Xususan, elektrlashtirilgan temir yo'llar ulushi 2023-yildagi 44,4 foizdan 2025-yil yakuniga kelib 53,2 foizga yetkazilgani qayd etilgan.

Kelgusi besh yilda respublika temir yo'llarini elektrlashtirish darajasini necha foizga yetkazish va bu orqali dizel yonilg'isidan foydalanishni to'liq cheklash bo'yicha vazirlikning strategik rejsasi qanday?

Vazir ushbu savol yuzasidan javob berar ekan, 2030-yilga qadar 65 foiz temir yo'llarni elektrlashtirish rejalashtirilganini ma'lum qildi.

Majlisda transport vazirining axboroti yuzasidan Qonunchilik palatasining tegishli qarori qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Matbuot xizmati.

TEMIR YO'L TRANSPORTI SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR BUGUNGI KUN TALABLARIGA MOSMI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida transport vaziri Ilhom Mahkamovning "Temir yo'l transporti sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirish hamda yo'lovchi va yuk tashish xizmatlarini takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Qonunchilik palatasining shu yil 31-mart kuni bo'lib o'tgan majlisida deputatlarning yolg'ara chiqib o'rganishlari jarayonida temir yo'l transporti sohasida ayrim masalalar kuzatilayotganidan kelib chiqib, bu bo'yicha vazir axborotini eshitish yuzasidan qaror qabul qilingan edi.

Vazirning ta'kidlashicha, mamlakatimizda so'ngi yillarda temir yo'l transporti sohasi jadal rivojlantirilib, aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ishonchli, uzluksiz va sifatli transport xizmatlari bilan ta'minlanmoqda. Logistika tizimi takomillashib, yuk va yo'lovchi tashish xizmatlari samaradorligi oshmoqda.

Xususan, 2023 – 2025-yillarda jami 338,7 km. uzunlikdagi yangi temir yo'llar qurilgan. Elektrlashtirilgan temir yo'llar ulushi 2023-yildagi 44,4 foizdan 2025-yilda 53 foizga yetkazilgan. Mavjud tarmoqni ishonchli holda saqlash maqsadida 2025-yilda 174,1 km. temir yo'l tarmoqlari joriy va kapital ta'mirdan chiqarilgan.

Shuningdek, yuk tashish xizmatlari ham tizimli olib borilmoqda. Jumladan, 2023 – 2025-yillarda temir yo'l transporti orqali jami 317,9 mln. tonna

yuk tashilgan. Shundan 137,8 mln. tonnasi xalqaro tashuvlar hissasiga to'g'ri kelgan. 2025-yil yakunlariga ko'ra, jami yuk tashish hajmi 107,9 mln. tonnani tashkil etib, 2024-yildagiga nisbatan 5,1 foiz o'sish ta'minlangan.

Vazirning aytishicha, sohada raqamli texnologiyalarni joriy etishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, yuk jo'natuvchilar uchun "Yagona darcha" tamoyili asosida "E-nakl" axborot tizimi qo'llanilmoqda. Natijada yuk hujjatlarini rasmiylashtirish jarayoni 7 bosqichdan 3 bosqichga qisqarib, rasmiylashtirishga ketadigan vaqt 60 soatgacha kamaytirildi.

Yo'lovchi tashishda elektron chipta sotish ulushi 40 foizdan 86 foizgacha oshirilgan. Respublika bo'yicha Toshkent – Markaziy, Toshkent – Janubiy, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Xiva, Urganch, Nukus, Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Termiz, Qarshi va Qo'ng'iro't kabi vokzallarga 50 dan ortiq infokiosklar o'rnatilgan.

Transport vaziri sohaga xususiy sektorni jalb etish borasida ham qator ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidladi. Xususan, temir yo'l vokzallarida xizmat ko'rsatish sifati va servis

turlari sezilarli darajada kengaygan. 2023-yildan buyon respublika bo'yicha 33 ta vokzalga jalb qilingan tadbirkorlar soni 90 tadan 270 tagacha oshgan.

2026-yil birinchi choragi yakunlariga ko'ra, temir yo'l transporti xizmatlari hajmi 4,7 trln. so'mga yetkazilib, 28,1 foiz o'sish ta'minlangan. Shu davrda yuk tashish hajmi 28,0 mln. tonnani, yo'lovchi tashish 3,1 mln. nafarni tashkil etgan.

Deputatlar vazir axboroti bilan batafsil tanishgach, ayrim masalalarga e'tibor qaratdi. Misol uchun, yo'lovchi va yuk tashishga talab ortib borayotganiga qaramay mavjud harakat tarkibi va ishlab chiqarish quvvatlari bu ehtiyojlarni to'liq ta'minlash uchun yetarli emasligi, sohada davlat ishtirokidagi korxonalar ustunligi saqlanib qolayotgani aytiladi.

Vazirlikka vagonlar soni va sifatini oshirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, mavjud temir yo'l loyihalari ijrosini jadallashtirish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Xalq vakillari temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilishda "yashil" texnologiyalar va elektrlashtirish ko'lamini, shuningdek, sohada raqamlashtirish va shaffoflikni ta'minlash maqsadida elektron xizmatlar turlarini kengaytirish choralari ko'rish borasida ham o'z fikr-mulohazalarini bildirdi. Muhokamalar davomida kun tartibidagi mazkur

masala yuzasidan vazirga qator savollar ham berildi.

Dilbar MAMAJONOVA, O'ZDXP fraksiyasi a'zosi:

– 2024-yilda yangi tahrirdagi "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu hujjat sohada davlat boshqaruvi va xavfsizlikni ta'minlashning yangi huquqiy poydevori etib belgilandi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan infratuzilmadan teng foydalanish va poyezdlar harakati bilan bog'liq xodimlarning ish va dam olish rejimiga oid muhim normalar tasdiqlandi.

Ayting-chi, bu huquqiy o'zgarishlar temir yo'l transportida erkin raqobat muhitini yaratish va xususiy operatorlarning bozorga kirishi uchun qanday amaliy quyaliklar yaratmoqda? Qonun ijrosini ta'minlash orqali yo'lovchi va yuk tashishdagi xizmat sifatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha nazorat mexanizmi qanday yo'lga qo'yilgan?

Vazir ushbu savollar yuzasidan batafsil tushuntirishlar berib, bu boradagi ishlar haqida alohida to'xtalib o'tdi.

Endilikda kimyo sanoatida 17 milliard dollarlik 350 dan ziyod loyihalarni ishga tushirish bo'yicha dastur ishlab chiqilib, amaliy harakatlar boshlanadi.

